# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I11Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 11 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
4-jild, 11-son (Noyabr, 2024). -569 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич*
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА ........ 12-17

*Эгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли*
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) ........ 18-25

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
QO’QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI ........ 26-31

*Mamatqulov Bekzod*
OʻZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI ........ 32-38

*Asadova Ra’no Baymanovna*
OʻZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KOʻTARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI ........ 39-42

*Saidova Raxima*
OʻZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI .... 43-48

*Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi*
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING OʻRGANILISH TARIXI ........ 49-55

*Iriskulov Bekzod Jaxongirovich*
TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYuDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ........ 56-60

*Mirsoatova Sayyora Turgʻunovna*
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI ........ 61-66

*Луҳмонов Шаҳзод Сайфиддин ўғли*
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР ........ 67-71

*Axmedov Bekzod*
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN OʻZBEKISTONDA QORAKOʻLCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI ........ 72-75

*Mamatov Jasurbek Qodirqul oʻgʻli*
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI OʻRNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) ........ 76-80

*Saidaxmatov Sharifbek Toshpoʻlatovich*
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YOʻNALISHLARI ........ 81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*
ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ........ 94-99

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Tursunov Bektmuxammad Omonovich*
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ........ 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO‘LLANISHI ........ 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*
INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO‘LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA........ 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*
КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*
KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI........ 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*
MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING OF GOODS AND SERVICES ........ 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po‘latjon qizi*
MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI TASNIFI ........ 153-160

*Sharipov Komil*
MINTAQAVIY KAMBAG’ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ........ 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*
MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI........ 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*
SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN........ 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*
TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING TAHLILI ........ 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o‘g‘li*
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI ........ 197-202

*Рахимов Бахромжон Ибрахимович*
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ........ 203-209

*Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon oʻgʻli*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA) ........ 210-216

*Hasanov Ilkhom Isakovich*
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN ........ 217-221

*Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna*
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KOʻRSATISHNING XUSUSIYATLARI ........ 222-227

*Maxmudov Jasurbek Ergashevich*
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QOʻLLAB-QUVVATLASH TAHLILI ........ 228-233

*Ravshanov Nodirjon Begalievich*
TAʼLIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TAʼLIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI ........ 234-243

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TAʼSIRI ........ 244-248

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*
XORAZM JADIDLARI MAʼNAVIY MEROSINING YANGI OʻZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAGʻRIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI ...... 249-254

*Saburov Jaloliddin*
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI ........ 255-260

*Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich*
NAJMIDDIN KUBRO TAʼLIMOTIDA “KOMIL INSON ” TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MAʼNAVIY YUKSALISHGA OID GʻOYALARNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 261-265

*Saidkulov Nuriddin Akramkulovich*
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY ........ 266-271

*Adilov Zafar Yunusovich*
MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI ........ 272-277

*Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich*
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION ........ 278-282

*Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich*
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 283-287

## 11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Baxronova Dilrabo*
PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ........ 288-295

*Daliyeva Madina*
DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ........ 296-300

*Paluanova Khalifa*
STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ........ 301-306

*Равшанов Махмуд*
СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ........ 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna*
SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ........ 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*
MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ........ 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*
ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ........ 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*
TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ........ 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*
KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 335-339

*Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna*
XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ........ 340-345

*Расулова Камола*
ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ........ 346-353

*Омонов Турғунбой*
"СУҒУРТА" ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ........ 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........ 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*
IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*
CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" ........ 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudalievna*
EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ........ 377-381

*Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi*
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI ........ 382-385

*Yuldasheva Nigora Baxodirovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMIYALARINI O‘RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ........ 386-390

*Quljanova To‘lg‘anoy Shodiyor qizi*
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE’RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ........ 391-396

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Рузметов Хайрулла*
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ........ 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ........ 403-410

*Abdubannayev Umidjon*
AXBOROTGA BO‘LGAN INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ........ 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ........ 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон Ўғли*
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ........ 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA ........ 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ........ 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ........ 452-462

*Ғайбуллаев Сохибжон Ғайбуллаевич*
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ........ 463-469

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Xusanova Mohira*
OLIY O’QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 470-479

*Берикбаев Алишер Аликулович*
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ........ 480-483

*Yusupova Shoxista Alimjanovna*
TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ........ 484-489

*Yakubova Nafisa Odilyanovna*
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH ........ 490-494

*Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li*
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI ........ 495-500

*Suvankulov Umid Ilxom o'g'li*
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ........ 501-505

*Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich*
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV ........ 506-518

*Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li*
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI ........ 519-524

*Siddiqova Shahnoza Ahmedovna*
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI ........ 525-529

*Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich*
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI ........ 530-534

*Javliyeva Shahnoza Bahodirovna*
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI ........ 535-539

*Jumaboev Nabi Pardaboevich*
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI ........ 540-545

*Kayumov Erkin Kazakbayevich*
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY ........ 546-550

*Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli*
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS ........ 551-555

*Latipova Gavhar Shavkat kizi*
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........ 556-564

*Ernazarov G'olibjon Ne'matovich*
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI ........ 565-568

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Issue 11 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 31 October 2024
**Accepted:** 5 November 2024
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

# FEATURES OF PROVISION OF SERVICES IN RETAIL ENTERPRISES

**Ibragimova Nilufar**
Assistant of the Department of Digital Technologies and Economics of the Kattakorgan branch of the Samarkand State University

**Abstract.** This article clarifies the categories of services provided by retail enterprises, improves the scientific research used to evaluate service quality and theoretically discusses the evaluation of the quality of retail services.

**Keywords:** retail trade, assessment of service quality, retail enterprises, social division of labor, buying and selling processes, labor productivity in retail enterprises.

# CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI

**Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna**
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi assistenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chakana savdo korxonalari xizmatlari kategoriyasini aniqlashtirish, xizmat sifatini baholashda foydalaniladigan ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish, chakana savdo xizmatlari sifatini baholash bo'yicha nazariy jihatdan yoritib berilgan.
**Kalit so'zlar:** chakana savdo, savdo xizmatlari sifatini baholash, chakana savdo korxonalari, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovar oldi-sotdi jarayonlari, chakana savdo korxonalarida mehnat samaradorligi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N29

**Kirish.** Jahonda aholi turmush darajasi sifatini oshirishda an'anaviy tarzda chakana savdo muhim ahamiyat kasb etgan holda, ishlab chiqarishning ijtimoiylashuvi sharoitida shartli ravishda ishlab chiqarishni yakunlovchi va iste'molchi bilan uchrashuvni tashkil qiluvchi bo'g'in sifatida chakana savdoning ahamiyati yanada o'sib bormoqda. "Jahonda chakana savdo hajmi 2021-yildagi 24,2 trillion. AQSh dollari hajmidan 2025-yilga kelib, taxminan 31,7 trillion. AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilingan bo'lib, globallashuv va bozorlar hamda mamlakatlar o'rtasidagi turli shartnoma va kelishuvlar natijasida ko'plab chakana savdo korxonalari biznes yuritish imkoniyatiga ega bo'lishi kutilmoqda"[8]. Bugungi kunda chakana savdo xizmatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish sifatini baholashga ko'ra iste'molchilar talabini yuqori darajada qondirish muammolariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda chakana savdoni rivojlantirish va savdo xizmatlari sifatini baholash tizimini takomillashtirishda aholi turmush darajasi sifatini oshirish sharoitida chakana savdoni

innovatsion texnologiyalarga koʻra rivojlantirish, savdo ishlab chiqarishini ratsional tashkil qilish, chakana savdo xizmatlari tarkibini kengaytirgan holda savdo xizmatlari sifatini integral baholash uslubiyatini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada elektron tijoratni samarali rivojlantirish, chakana savdo xizmatlari sifatini baholash uslubiyatini komplekslilik darajasiga koʻra takomillashtirish, savdo tizimining innovatsion rivojlanish yoʻnalishlarini uslubiy jihatdan aniqlashtirgan holda uning samarali yoʻllarini asoslash kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi Oʻzbekiston iqtisodiyotida chakana savdo korxonalar faoliyatining barqaror va samarali rivojlanishi, xizmat sifati bilan bir qatorda xizmat madaniyatini oshirish, savdo korxonalarini sifatli mahsulotlar bilan toʻldirish, tarkibni optimallashtirish va assortimentni kengaytirish hamda savdo ishlab chiqarishini samarali tashkil qilish kabi yoʻnalishlarda dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Yurtimizda 2 mingdan ziyod mahalla xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan. Bunday hududlarni koʻpaytirish maqsadida, aholisi 20 mingdan oshadigan mahallalarda chakana savdo va xizmat koʻrsatish markazlari tashkil etiladi. Bu markazlar ham 5 yil muddatga yer va mol-mulk soligʻidan ozod etiladi”[7]. Bu vazifalarni hal etishda chakana savdo xizmatlari sifatini baholash uslubiyatini takomillashtirish, isteʼmolchilarning chakana savdo xizmatlariga talabini toʻlaroq qondirish, savdo tizimini innovatsion rivojlantirish kabi yoʻnalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

**Mavzu boʻyicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili**. D.A.Klarx chakana savdo korxonalari xizmatlarini isteʼmolchiga mahsulot bilan bogʻliq boʻlgan yoki bogʻliq boʻlmagan, maʼlum xususiyatlariga ega (nomoddiylik, ishlab chiqaruvchidan ajralmaslik, tez buzilganlik, sifatning oʻzgaruvchanligi) taklif qilishi mumkin boʻlgan faoliyatlar, oldi-sotdi jarayonlarining obyekti sifatida, isteʼmolchilarning ehtiyojlarini qondirish imkoni boʻlgan harakatlar yoki imtiyozlar majmuyi sifatida belgilab beradi[3; 20-26-b].

M.A.Nikoleva chakana savdo xizmatini chakana sotuvchi va isteʼmolchi oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, shu bilan birga xaridorning tovarlarining yagona nusxalarida murakkab qadoqlashgan shaklda ehtiyojlarini qondirish uchun chakana sotuvchining faoliyati natijasidir, degan gʻoyani ilgari surgan[5; 224-248-b].

O.A.Semin, V.A.Saydasheva, V.V.Panyukovalar fikricha, “chakana savdo xizmatlari” kategoriyasi oʻrniga “savdo xizmati” kategoriyasini taklif etib, bunda sotuv jarayoni hamda xaridorlarga xizmat koʻrsatish jarayonlarini takomillashtirishni nazarda tutuvchi harakatlar va dasturlar toʻplami inobatga olingan.[6; 142-149-b]

**Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida** savdo sohasi xodimlari mehnati jamiyat taraqqiyotidagi umumiy ijtimoiy zaruriyati, chakana savdo korxonalari oʻziga xos xususiyatlari chakana savdo korxonalarida mehnat samaradorligini toʻgʻri baholash, tahlil qilish, rejalashtirish hamda uni amalga oshirish yoʻnalishlarini aniqlash uchun mehnat resurslari shakllanishi boʻyicha **dinamik yondashuv usullaridan foydalanildi.**

**Maqolaning maqsadi. Xizmat koʻrsatish va chakana savdo korxonalarini** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish **imkoniyatlarini takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.**

**Tahlil va natijalar.** Jamiyat taraqqiyotining qandaydir bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida oddiy mahsulot almashinuvi tovar ayirboshlash shakliga, yaʼni oldi-sotdi jarayonlarini vujudga keltiradi. Ushbu jarayon alohida mehnat faoliyati sifatida ajraladi va

tarmoqni vujudga keltiradi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ishlab chiqarishdan tovar muomalasi ajralib chiqib, oldi-sotdi jarayonlari alohida tarmoq sifatida vujudga keladi. Ushbu jarayon savdo tarmog'ini vujudga keltiradi, shu bilan birga undagi mehnat ham alohida jarayonga aylanadi[1; 96-106-b].

Bozorga asoslangan iqtisodiyot sharoitida savdo korxonalarini tadqiq qilish uning muammolarini aniqlash hamda yechimini topish murakkab jarayon hisoblanib, ushbu jarayon quyidagi tamoyillarga bog'liqdir [4; 26-34-b] (1-rasm).

Faoliyat olib borayotgan savdo korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish muammolarini hal qilish bugungi globallashuv sharoitida mehnat jarayonlarini boshqarishni tubdan qayta ko'rish asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra savdo tarmoqlarida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ahamiyatga ega masalalarni ilmiy asoslaydigan fikrlar va tavsiyalarning ahamiyati va roli ortadi.

Savdo sohasi xodimlari mehnati jamiyat taraqqiyotidagi umumiy ijtimoiy zaruriy mehnatning ajralmas qismi bo'lib, savdo sohasi vazifalaridan kelib chiqib, o'z xususiyatlariga egadir.

Savdo sohasida mehnatning xususiyati tovar oldi-sotdi jarayonlarini ta'minlash, ayrim ishlab chiqarish vazifalarini bajarish va alohida xizmat ko'rsatish bilan belgilanadi. Respublikamizda zamonaviy savdo tizimining shakllanib borishi natijasida tarmoq korxonalarida mehnat unumdorligining o'sishi, asoslangan faoliyat turlarining sezilarli kamayishi va inson ongida yangicha yondashuv masalalarini o'z ichiga olgan mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishlari va imkoniyatlari bo'yicha tadqiqotlar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash jarayonlarida savdo korxonalarida ishchi-xodimlarning bilimi, kasbiy tayyorgarligi va kasbiy mahorati, ularning mehnati va ijtimoiy faoliyatiga bo'lgan talablarning keskin ortishi bilan izohlanadi.

- savdo jarayonlarining kelib chiqish mohiyatini ilmiy asoslangan holda yoritib berish;
- savdo jarayonlarining jamiyat iqtisodiyotida tutgan o'rnini, ahamiyatini aniqlash;
- savdo jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy, tashkiliy va boshqarish muammolarini oldindan aniqlab olish. Bu esa o'z navbatida savdo jarayonlaridagi iqtisodiy munosabatlarni, uning xo'jalik mexanizmlarini chuqur bilishni taqozo qiladi;
- savdo jarayonlarini tashkil qilishda savdo korxonalari, shaxobchalari faoliyatining holatlarini va rivojlanish tendensiyalarini o'rganib borish;
- savdo jarayonlarini tashkil qilishning xorijiy ilg'or tajribalarini tahlil qilish, ularni ijobiy va respublikamiz iqtisodiyotiga mos tomonlaridan samarali foydalanish masalalarini yoritish kabilar shular jumlasidandir.

**1-rasm. Savdo korxonalarini tadqiq qilish tamoyillari**

GOST R1304-2009 ga muvofiq “chakana savdo xizmati sotuvchi va xaridor oʻrtasidagi toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzaro munosabatlarning natijasi, hamda oldi-sotdi shartnomasi boʻyicha tadbirkorlik faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan sotuvchi tomonidan xaridorning shaxsiy, oilaviy, uy sharoitida foydalanish uchun tovarlarni sotib olishga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish faoliyatidir”[2].

Chakana savdo korxonalari oʻziga xos va mos xususiyatlardan kelib chiqqan holda isteʼmol va aralash xizmat turlarini taqdim etadilar.

Chakana savdo tarmoqlari yaxlit bir butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tashkil qiladi. Uning ijtimoiy tizim ekanligi shundan iboratki, birinchidan, jamiyat aʼzolarining aniq bir ehtiyojlarini qondirish va ular tomonidan boshqarish uchun boʻlsa, ikkinchidan, jamiyatning har bir aʼzosini muayyan shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun tashkil etilib faoliyat olib boradi. Yagona iqtisodiy tizim sifatida u resurslardan foydalanish va tovarlarni sotish natijasida moddiy neʼmatlarni ishlab chiqish jarayonlari uzluksizligini tovar almashinuvini doimiy amal qilinishini, uning soʻnggi isteʼmolchilariga yetkazib berilishini toʻgʻri va toʻliq taʼminlab turadi.

Chakana savdo korxonalari xodimlarining barcha mehnat jarayonlari oʻzining tabiati va mazmuni jihatidan ikki turga ajratiladi (2-rasm).




**2-rasm. Chakana savdo korxonalari xodimlarining mehnat jarayonlari turlari**

Ushbu jarayonlar quyidagi holatlarda namoyon boʻladi:

– birinchi holat, mehnat jarayonlari oʻzining tabiati va mazmuniga koʻra, qiymat shaklining oʻzgarishi tovarni sotish va sotib olish, reklama, hisob-kitob va boshqalar orqali amalga oshiriladi;

– ikkinchi holat, yetkazib berish, qadoqlash, saqlash, sortlarga ajratish, tashish-tushirish va boshqa xizmat turlari bilan bogʻliq mehnat jarayonlarini oʻz ichiga oladi.

Savdo tizimidagi mazkur mehnat jarayonlari oʻzaro bir-biri bilan uzviy bogʻliq va ular savdo jarayonlarining asosini tashkil qiladi.

Shu sababli chakana savdo korxonalarida mehnat samaradorligini toʻgʻri baholash, tahlil qilish, rejalashtirish hamda uni amalga oshirish yoʻnalishlarini aniqlash uchun mehnat resurslari shakllanishi va taʼrifining umumiy tamoyillariga asoslangan holda savdo xodimlari mehnat salohiyatining tarkibiy qismlari elementlarini tadqiq etish va ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyatga egadir. Bunda savdo xodimlari xoʻjalik faoliyati xususiyatlarini inobatga olish muhim rol oʻynaydi.

Mamlakatimizda bugungi kunda chakana savdo tizimi koʻp tizimli xoʻjalik turi sifatida savdo ishlab chiqarish, tayyorlash faoliyatlari bilan bir qatorda maishiy va boshqa xizmat

faoliyatlari bilan ham shugʻullanib kelmoqda. Shu sababli ham savdo tizimida band boʻlganlar mehnat bozori bilan chambarchas bogʻliqdir.

Respublikamizning mehnat bozoridagi holatini bugungi kun misolida tahlil qiladigan boʻlsak, unda oʻziga xos bir qator jihatlarni koʻrishimiz mumkin, yaʼni savdo tarmoqlaridagi bandlik darajasi XX asrning 80-yillariga nisbatan past darajani qayd etmoqda, ammo ushbu koʻrsatkichlardan qatʼi nazar savdo sohasida band boʻlganlar (xohlovchilar) soni yuqori darajada. Xulosa qilishimiz mumkinki, mehnat bozorida savdo korxonalaridagi boʻsh ish oʻrinlariga talabgorlarning koʻpligi buni isbotlaydi. Bundan tashqari savdo faoliyati bilan shugʻullanuvchilarning yoshi ham "yoshargan". Savdo tarmoqlari faoliyati doirasini kengayishi ushbu faoliyatda noqonuniy shugʻullanuvchilarning koʻpayishiga olib keladi. Bunga oʻxshash holatlar savdo sohasida mehnat faoliyatini ilmiy, samarali tashkil etishga, bu sohada ilgʻor texnologiyalarni qoʻllashga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Chakana savdo tarmoqlari sohasi mamlakatimizda uzoq tarixga ega boʻlgan koʻp tarmoqli xoʻjalik faoliyatlarini olib boruvchi tizim sifatida savdo – ishlab chiqarish tayyorlash faoliyati bilan bir qatorda boshqa xizmatlarni ham (reklama, tovarlarni manzilgacha yetkazib berish va boshqalar) koʻrsatadi. Xizmat koʻrsatish tarmoqlarining bu turida koʻplab mehnat resurslarining shu ish bilan bandligi uning mamlakatimiz mehnat bozori bilan uzviy bogʻliq ekanligini belgilaydi.

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan chakana savdo, ishlab chiqarish sohasi va isteʼmol sohalari oʻrtasidagi vositachilikni hamda uzviy bogʻliqlikni amalga oshiradi. Chakana savdo tizimida bevosita ishlab chiqaruvchiga hamda isteʼmolchiga nima zarur ekanligini aniqlab beradi. Savdo jarayonida aholiga qanday moddiy neʼmat, qancha hajmda kerakligi hamda qaysi tartibda oʻzlashtirish jarayoni namoyon boʻladi. Shuning uchun ham savdo korxonalarida mehnat salohiyati va undan samarali foydalanish masalalarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. Buning natijasida savdo xodimlarining miqdor va sifat koʻrsatkichlarini oʻzaro uygʻunligini va ulardan samarali foydalanishni belgilovchi omillar asosida aholi ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy va xorijiy olimlarning "xizmat koʻrsatish" hamda "chakana savdo korxonalari xizmatlari" kategoriyalari boʻyicha oʻrganilgan nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, bizning fikrimizcha, chakana savdo korxonalari xizmatlari – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlarning foydalilik xususiyati va uni chakana savdo korxonalarining foydali faoliyati shaklidagi ijtimoiy foydalanish qiymati sifatida belgilaydigan, bozor subyektlari talabini va xizmatlarini sotib olish va sotish orqali sotuvchilarning iqtisodiy foydasini taʼminlashga moʻljallangan oʻziga xos mahsulot sifatida taʼriflashimiz lozim.

Ushbu taʼrifimiz taklif qilingan savdo sohasida "xizmat koʻrsatish" tushunchasi toʻgʻrisidagi mavjud taʼriflardan farqli ravishda isteʼmol bozorida xizmatlarning foydaliligining asosiy koʻrsatkichlarini ham oʻzining ehtiyojlarini qondiruvchi xaridorlar uchun ushbu xizmatlarni sotib olish va sotishdan oʻzaro manfaatdorlikni tanlash imkoni paydo boʻladi.

Chakana savdo korxonalari tizimida xizmat koʻrsatish mehnat natijasi boʻlib, biron-bir moddiy koʻrinishdagi mahsulotni yaratish emas, balki tovar holatining oʻzgarishi, ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonidan isteʼmol jarayoniga oʻtishdan iborat boʻlgan savdo faoliyatidan ajralmagan holda foydali samaraga erishish hisoblanadi.

Chakana savdoda xaridorlar va sotuvchilar oʻrtasida tovarlarni sotib olish va sotish jarayonida ayirboshlash obyekti, yaʼni tovar va ayirboshlash shartlari hamda koʻrsatiladigan

savdo xizmatlari sifatiga jamoatchilik munosabatlari shakllanadi. Agar savdo tizimi xizmatlarining sifati talab darajasida bo‘lmasa, tovarlar sotilmasligi mumkin. Demak, savdo xizmatlarining sifat darajasi chakana savdo korxonalari faoliyatining zaruriy shartlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Biz tomonimizdan “chakana savdo korxonalari xizmatlari” kategoriyasini aniqlashtirish bo‘yicha keltirilgan taklifimiz, xizmat sifatini baholashda foydalaniladigan ilmiy apparatni to‘ldirish hamda ushbu yo‘nalishda tadqiqotlarni takomillashtirish imkonini beradi. Xulosa qilishimiz mumkinki, turli xil xizmat turlarining ilmiy asoslangan tasnifi chakana savdo xizmatlari sifatini baholashda katta ahamiyat kasb etadi va bu o‘z navbatida ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borilishiga zamin yaratadi.

**Xulosa**. Biz tomonimizdan “chakana savdo korxonalari xizmatlari” kategoriyasini aniqlashtirish bo‘yicha keltirilgan taklifimiz, xizmat sifatini baholashda foydalaniladigan ilmiy apparatni to‘ldirish hamda ushbu yo‘nalishda tadqiqotlarni takomillashtirish imkonini beradi. Xulosa qilishimiz mumkinki, turli xil xizmat turlarining ilmiy asoslangan tasnifi chakana savdo xizmatlari sifatini baholashda katta ahamiyat kasb etadi va bu o‘z navbatida ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borilishiga zamin yaratadi.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. B.A.Abdukarimov. Ichki savdo iqtisodiyoti I qism. Samarqand SamISI, 2007. – B 128
2. ГОСТ Р 51304-2009. Услуги торговли. Общие требования [Электронный ресурс]. — Взамен ГОСТ Р 51304-99; введ. 01.01.2011. – М.: Стандартинформ, 2010. – Режим доступа: protect.gost.ru.
3. Карх Д. А. Формирование услуг розничной торговли: автореф. дис. ... канд. экон. наук /Д. А. Карх. - Екатеринбург: УрГЕИ,. 2003. - 20 с.
4. M.Q.Pardavev va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. – T.: “iqtisod-moliya”, -2008. -B.133.
5. Николаева М. А. Маркетинг товаров и услуг : учебник / М. А. Николаева. – М.: Деловая литература, 2002. - 448 с.
6. Семин О. А. Сервис в торговле. Маркетинг и управление качеством торговых услуг : учеб. пособие. В 3 кн. Кн. 1 / О.А. Семин, В.А. Сайдашева, В.В. Панюкова. — 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Дело и сервис, 2006. – 216 с.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 19-aprel kuni mahallabay ishlash tizimi natijadorligini oshirish hamda aholi bandligini ta’minlash masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi. https://president.uz/uz/lists/view/5133
8. https://www.statista.com/statistics/report-content/statistic/443522

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).